

Rustam Baxronov

Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi bo'lim boshlig'i

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK SOHASIDA XORIJIY TAJRIBALAR

Endigina rivojlanib kelayotgan davlatlarning iqtisodiyotida barcha sohani birdaniga rivojlantirish uchun kapital yetishmasligi, shuningdek, davlat ijtimoiy infratuzilmalarini modernizatsiya qilish va qurishga investitsiyalarni ko'p hollarda boshqa ustuvor yo'nalishlar (yo'l, mudofaa, ichki xavfsizlik, energiya, transport va boshqalar) foydasiga kechiktirishini hisobga olsak, buni faqat davlat tomonidan o'z vaqtida amalga oshirish qiyin. Shunday qilib, Yevropa investitsiya banki tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki agar bunday loyihalar faqat davlat kuchlari tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, ular, ehtimol, keyinroq amalga oshiriladi yoki umuman amalga oshirilmagan bo'lardi¹.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini juda ko'p tarmoq va sohalarga joriy qilish mumkin bo'lib, uni amalga oshirishning birlamchi sohalarni tanlash davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga va siyosatidan kelib chiqib mustaqil ravishda hal etiladi. Yurtimizda davlat-xususiy sheriklik ijtimoiy sohada jadallik bilan rivojlantirilmoqda.

Turli xil davlat-xususiy sheriklik loyihalarini turlari, shakllari va foydalanish sohalari ularni har xil turdagi uzoq muddatli muammolarni hal qilishning universal mexanizmiga aylantiradi.

Buyuk Britaniya davlat-xususiy sheriklik qonunchilikka kiritilgan birinchi davlatlardan biridir. Buning uchun birinchi qadam 1992-yilda "Xususiy moliya tashabbusi" (Private Finance Initiative, PFI) deb nomlangan maxsus konsepsiyani qabul qilinishi bo'ldi. Uning ma'nosi xususiy kompaniyalarga davlat mulki bo'lgan ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ulardan foydalanish funksiyalarini berishda edi².

Dunyoda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini rivojlanishini **uch bosqichi** mavjud. Ko'pgina davlatlar hali ham davlat-xususiy sheriklik rivojlanishining birinchi bosqichida. Ya'ni davlat-xususiy sheriklik uchun standartlar va qonun hujjatlarini ishlab chiqish jarayonidalar. Davlat-xususiy sheriklikni joriy qila boshlagan davlatlar mazkur bosqichdan o'tgan mamlakatlar tomonidan to'plangan tajribadan foydalanishlari mumkin.

Hozirda faqat Buyuk Britaniya, Avstraliya va Irlandiya davlat-xususiy sheriklikning uchinchi bosqichida.

Ikkinchi bosqichda Yevropaning rivojlangan davlatlarining ko'pchiligi (Fransiya, Ispaniya, Italiya, Gresiya, Germaniya), AQSH, Kanada, Yaponiya va Yangi Zelandiyalar kiradi.

Rivojlanishning birinchi bosqichida esa, Sharqiy Yevropa davlatlari, Lotin Amerikasi davlatlari, Rossiya va MDH davlatlari kiradi.

Shunisi ajablanarliki, Buyuk Britaniya, Turkiya, Gollandiya, AQSH, Kanada, Xitoy kabi rivojlangan davlatlarda davlat-xususiy sheriklikning qonunchilik bazasi mavjud emas³.

Buyuk Britaniyada davlat-xususiy sheriklik tizimining ahamiyati tegishli shartnomalarni tuzish masalalarida davlat yoki vaolatli organlarning faoliyatni cheklash yuzasidan muvofiq qonunchilik amalda mavjud emas. Munitsipalitetlar uchun 1997 yilda "Mahalliy hokimiyat organlari uchun shartnomalar to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, ularga davlat-xususiy sheriklik loyihalarini to'g'ridan-

¹ Gosudarstvenno-chastnoye partnerstvo v sotsialnoy sfere arkticheskix stran Evropy, Toropushina Ye.E., Bashmakova Ye.P.3.

² Muejdunarodnyy opyt razvitiya gchp Nauchnaya statya Fadyushin I.S. *Finansovyy universitet pri Pravitelstve Rossiyskoy Federatsii, Moskva, Rossiya*.

³ Yu. V. Ploxix Zarubejnyy opyt razvitiya obshchestvennoy infrastruktury s ispolzovaniyem gosudarstvenno-chastnoye partnerstva.



to‘g‘ri amalga oshirish huquqini beradi. Aynan shuning uchun davlat institutlari va xususiy kompaniyalar Buyuk Britaniya davlat-xususiy sheriklik tizimi va boshqa ixtisoslashgan institutlarga javob beradigan moliya vazirligining vakolatli bo‘limlari tomonidan ishlab chiqilgan namunaviy loyihalardan foydalanadilar⁴.

⁴ O sisteme gosudarstvenno-chastnogo partnerstva v Velikobritanii [Elektronnyy resurs] // Internet-portal “Gosudarstvenno-chastnoye partnerstvo v Rossii”. 2009 godu.